

AYOLLARDA LAPAROSKOPIK OPERATSIYALAR: AFZALLIKLARI VA KLINIK NATIJALARI

Usmonova Nigoraxon Homidjon qizi

Kokand universiteti, Andijon filiali tibbiyot fakulteti talabasi:

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar ginekologiyasida laparoskopik operatsiyalarning afzalliklari, klinik samaradorligi va sog'ayib ketish natijalari tahlil qilingan. Kaminvaziv usul (organizmga katta kesimlarsiz, kichik teshiklar (kesimlar) orqali kirib, maxsus asboblardan amalga oshiriladigan amaliyotdir) sifatida laparoskopiya ochiq (laparotomik) operatsiyalar bilan solishtirilganda tez tiklanishi, asoratlarsizligi, estetik jihatlar va reproduktiv salomatlikni saqlab qolishdagi ustunliklari bilan ajralib turadi. Bepushtlik, tuxumdon kistalari, endometrioz, bachadon tashqari homiladorlik va miomalar kabi patologiyalarda laparoskopik yondashuvning samaradorligi klinik kuzatuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Laparoskopiya, ginekologik operatsiya, tuxumdon kistasi, endometrioz, bepushtlik, minimal invaziv usul, reproduktiv salomatlik, klinik natijalar.

KIRISH

So'nggi yillarda ginekologiya sohasida, xususan, O'zbekiston tibbiyot amaliyotida laparoskopik operatsiyalarning qo'llanilishi kengayib bormoqda. Ushbu texnologiya diagnostika bilan birga samarali davolash vositasi sifatida qo'llanib kelinmoqda. Laparoskopik operatsiyalar – bu qorin bo'shlig'iga maxsus optik va jarrohlik asboblardan yordamida kichik (0,5–1 sm) kesimlar orqali kirib amalga oshiriladigan kaminvaziv jarrohlik usulidir. Ushbu yondashuv an'anaviy laparotomik operatsiyalar bilan solishtirilganda kamroq invazivligi, infeksiyon xavfi kamligi, travmatik ta'sirning kamayganligi, tezroq rehabilitatsiya va estetik afzalliklari bilan ajralib turadi.

Laparoskopik jarrohlik ayniqsa reproduktiv yoshdagi ayollar orasida uchraydigan patologiyalar – bepushtlik, tuxumdon kistalari, endometrioz, bachadon tashqari homiladorlik hamda bachadon miomalarini davolashda yuqori klinik samaradorlik va funksional natijalar bilan tavsiflanadi.

Laparoskopik operatsiyalarning dolzarbligi:

zamonaviy tibbiy texnologiyalarga asoslanganligi; laparoskopiya – ilg'or texnologiyalar va uskunalardan asosida amalga oshiriladigan, rivojlangan mamlakatlar ginekologik amaliyotida keng qo'llanilayotgan usul hisoblanadi.

reproduktiv yoshdagi ayollarda keng qo'llanilishi; ayniqsa bepushtlik, tuxumdon kistalari, endometrioz, ektopik homiladorlik va miomalarda laparoskopik yondashuv asosiy davolovchi usul sifatida tavsiya etilmoqda.

klinik samaradorlikning yuqoriligi; turli klinik tadqiqotlar laparoskopik operatsiyalar samaradorligining 90% dan ortiq holatlarda ijobiy natija berishini ko'rsatmoqda.

sog'lomlanish ko'rsatkichlarining yaxshi bo'lishi; operatsiyadan so'ng homiladorlik ehtimolining oshishi, og'riq sindromining kamayishi va bemorlarning hayot sifatining yaxshilanishi bu usulning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Laparoskopik operatsiyalarning texnik xususiyatlari va afzalliklari

Laparoskopik operatsiyalar 0.5–1 sm o'lchamdagi 3–4 ta kesim orqali amalga oshiriladi. Operatsiya davomida qorin bo'shlig'iga karbonat angidrid gazi yuborilib, ichki tuzilmalar yaxshiroq ko'rinadi. Optik kamera yordamida jarrohlik maydoni monitor orqali ko'rinadi.

Laparoskopik operatsiyalarning ayollar ginekologik kasalliklarini davolashdagi asosiy afzalliklari, kam qon ketadi, ichki to'qimalar kam shikastlanadi, tez tiklanish (1–3 kun ichida uyga chiqarish mumkin), estetik jihatdan chandiqlar qolmaydi, yuqori psixologik qulaylik va bemor roziligi, infeksiyon xavf kamligi va reproduktiv salomatlikni saqlab qolish imkoniyatlarining mavjudligidir.

Laparoskopik operatsiyalarning amaliy tibbiyotdagi qo'llanish doirasi va terapevtik samaradorligi keng klinik kuzatuvlar orqali isbotlangan.

Tuxumdonni saqlagan holda faqat kista olib tashlanadi. O'rtacha operatsiya muddati 30–45 daqiqa. Qon ketishi minimal bo'lib, tuxumdon faoliyati 90% hollarda saqlanadi.

Endometriozi – bepushtlikning keng tarqalgan sababi. Laparoskopik usulda patologik to'qimalar yo'q qilinadi. Homiladorlik ehtimoli 40–60% gacha oshadi, og'riq sindromi 6 oy ichida 80% holatda kamayadi.

Fallop naylari yirtilmasidan oldin salpingektomiya orqali homiladorlikni xavfsiz to'xtatish va keyingi homiladorlik imkoniyatini saqlab qolish mumkin.

Subseroz yoki intramural miomalarni olib tashlash orqali bachadonni saqlab qolish va reproduktiv rejalariga zarar yetkazmaslik mumkin.

482 bemordagi klinik kuzatuv natijalari (Andijon viloyatidagi tahlil asosida, 2022–2024 yillar).

O'rtacha operatsion vaqt: 45–60 daqiqa

Kasalxonada qolish muddati: 1,5 kun

Asoratlar darajasi: 3,1% (asosan engil gaz distenziyasi va infeksiyalar)

6 oy ichida homiladorlik kuzatilgan bemorlar ulushi: 68%

Bemorlarning umumiy qoniqish darajasi: 91%

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, laparoskopik usulning texnik va klinik jihatdan yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Laparoskopik operatsiyalar zamonaviy ginekologik amaliyotda dolzarb, ishonchli va samarali jarrohlik usuli sifatida tan olinmoqda. U bemorning hayot sifatini oshirish, reproduktiv salomatlikni saqlab qolish, tez tiklanish va estetik afzalliklar bilan ajralib turadi. Bugungi kunda tuxumdon kistalari, endometriozi, tashqi homiladorlik va bachadon miomalarni laparoskopik usulda davolash klinik jihatdan samarali, xavfsiz va bemorlar uchun qulay deb baholanmoqda.

Yaqin kelajakda bu usulning imkoniyatlari yanada kengayib, yurak-qon tomir va onkologik patologiyalarda ham keng qo'llanilishi kutilmoqda. Laparoskopiya — ginekologik jarrohlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Laparoskopik operatsiyalar garchi ko'plab afzalliklarga ega bo'lsada, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnik ta'minot, malakali kadrlar va bemor holatini to'g'ri baholash zarur. Mazkur muammolarni bartaraf etish laparoskopik jarrohlikni kengroq joriy qilish va amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cunningham F.G., Leveno K.J. et al. Williams Gynecology. McGraw-Hill Education, 2020.
2. Nezhat C., Nezhat F. Operative Gynecologic Laparoscopy: Principles and Techniques. Cambridge University Press, 2019.
3. AAGL (American Association of Gynecologic Laparoscopists). Practice Guidelines on Laparoscopy in Gynecology, 2022.
4. Isroilova D.N., Akramova N.I. "Laparoskopik jarrohlikning afzalliklari." O'zbekiston tibbiyotijurnali, 2023.
5. WHO. Safe Surgery and Minimal Access Surgery. World Health Organization Guidelines, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. Ginekologik operatsiyalar bo'yicha amaliy qo'llanma, 2022.
7. Sutton C. "Laparoscopy in gynecology: past, present and future." Best Pract Res Clin Obstet Gynaecol, 2021.
8. Uzbek Institute of Obstetrics and Gynecology. Klinik kuzatuvlar hisobotlari, Andijon, 2024.